

TARIXIY ROMANDA YOZUVCHI USLUBI VA MAHORATI

Saymuratova Ijobat Tursunqulovna,
Guliston davlat universiteti dotsenti
Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
E-mail: saymuratova.ijobat@mail.ru

Annotatsiya. Mazkur maqolada yozuvchi Isajon Sultonning "Bilga xoqon" romani badiiyati, tarixiy obraz va hayotiy haqiqat masalasi turli rakurslar nuqtayi nazaridan tahlilga tortilgan.

Kalit so'zlari: tarixiy roman, syujet, obraz, uslub, yozuvchi mahorati, turk dunyosi, bitiktoshlar, xoqon, tarixiy haqiqat.

Аннотация. В данной статье анализируются литературные, исторические и реалистические аспекты романа «Бильга Хаган» писателя Исаджона Султана с различных точек зрения.

Ключевые слова: исторический роман, сюжет, образность, стиль, писательское мастерство, тюркский мир, надписи, хаган, историческая правда.

Abstract. This article analyzes the literary, historical, and reallife aspects of the novel "Bilga Khagan" by writer Isajon Sultan from various perspectives.

Key words: historical novel, plot, image, style, writing skills, Turkic world, inscriptions, khagan, historical truth.

Kirish va dolzarbligi. Hozirgi adabiy jarayonning yirik vakili Isajon Sultonning "Bilga xoqon" romanida Bilga xoqon davri qamrab olingan. Roman Bilga xoqon bitiktoshidagi: "Butun yer yuzi bir kishi o'g'lining qizil qoniga arzimaydi", [2 S.30] – degan jumla bilan boshlanadi. Asar davomida Kul Tigin kimligini tuzukroq anglolmay qolgan zamondoshlari, keng ma'noda kelajak nasllarga alohida shaxsning shijoati, jasorati va fidoyiligi butun bir ulus qismatida burilish yashashi mumkinligiga iqror bo'lgan Bilga xoqon murojaatida bu jumla ikkinchi bor takrorlanadi.

Roman so'ngida ko'kturklarning dong'i va dovrug'ini yod etgan epik bayonchi (El Bo'g'u baxshi) olis tarixda tili, irqi, a'moli o'zga ekani yoxud moddiy ne'matlarga egalik qilish uchun chumoliday tirishib-talashib, hatto odam bolasini o'ldirishday aqlga sig'mas xunrezliklardan tap tortmay umrguzaronlik qilgan va hamon shunday yashayotgan, istiqbolda ham aynan shu taxlit kun kechirishi ehtimoldan uzoq bo'lmagan Odam Ato nasliga qarata: "Butun ochun birgina kishining qizil qoniga arziydimi?" [2, S.31] – degan savolni ko'ndalang qo'yadi.

Metodlar va o'rganilish darajasi. Yozuvchi mahorati haqida to'xtalgan professor N.Rahmonov: "... qo'liga do'mbirasini olib, "Alpomish"ni kuylayotgan baxshini shunchalik jonlantirganki, kitobxon ko'z o'ngida o'zbeklar, oltoy va qozoqlar, qoraqalpoqlarning baxshilari-yu oqinlari, chanqovuz chalayotgan ayollari gavdalanadi" [1, S.1] – deb yozadi. Anglashiladiki, bu obraz orqali adib kitobxonni o'ylashga fikrlashga, achchiq o'tmishni fikran va ruhan kechingach, undan tegishli saboqlar chiqarishga da'vat etadi.

Shu bois, biz romanni tadqiq etish asnosida uni N.Ya.Bichurin, L.N.Gumilev, S.Ye.Malov, A.N.Berishtam, G'.Abdurahmonov, A.Rustamov, N.Rahmonov asarlarida keltirilgan qimmatli ma'lumotlar bilan qiyoslashga ehtiyoj sezdik. Jumladan, N.Rahmonov "Mangu bitiktoshlar ilhomi" maqolasida "Bilga hoqon" romani yutuqlarini qayd qilar ekan: *"O'zbek xalqiga ham, boshqa turkiy xalqlar qatori, o'zligini anglatish yo'lida ijodkorlarimizning mehnatlari tahsinga loyiq... "Bilga xoqon" romani – turkiy xalqlarning o'n uch asrdan narigi davrdagi qayg'ulari ifodasi. Romanning debochasida Bilga xoqon Kul tigin timsolida butun turk xoqonligi alplari halokati uchun ko'z yosh to'kib, o'z qayg'usini izhor qildi. Yozuvchi imkon qadar qadimgi turk davridagi manzarani, qahramonlarning turkona tabiatini, hech narsadan tap tortmas botirligini saqlashga harakat qilgan.... Roman tarixiylik tamoyili asosiga qurilgani uchun, yozuvchi ortiqcha dabdabozlikka, romantik kayfiyatlarga berilmaydi. Bilga xoqon, To'nyuquq va Kultigin obrazlarining real qiyofasini chizadi", [1, S.2] – deb yozadi.*

Olim romanning quyidagi yutuqlarini qayd etadi: a) tabg'ach va turk eliga mansub qahramonlar keskin qutblantirib tasvirlanishi; b) El Bo'g'u baxshi do'mbira bilan kuylagan doston va qo'shiq lavhalari, yosh bola (jo'juq)larga aytgan rivoyatlari romanga alohida mazmun bag'ishlagani; v) "qiz quvdi", "ko'pkari" lavhalari, ilhom bilan bayon qilingani qadim udum va an'analarni jonlantirishga xizmat qilgani; g) personajlarni o'z tilidan gapirtirish, suhbat-muloqot epik bayon usuli romanga alohida fayz bag'ishlagani.

Tadqiqot natijalari. I.Sultonning "Bilga xoqon" tarixiy romani tarkibiy tuzilishiga ko'ra Muqaddima, uch bo'lim, So'ngso'zdan iborat bo'lib umumiy hajmi 76 betdan iborat. Roman markazida uchta zabardast qahramon: Bilga xoqon, uning inisi – bosh qo'mondon Kultegin, qaynotasi – bosh maslahatchi To'nyuquq obrazlari faol harakatlanadi. Shimoliy xoqonlikning yuksalishi, Yo'lluq Tegindan so'ng esa, butkul puturdan ketib, Sharqda uyg'ur eli kuchga kira boshlashi misolida tug'ilgan yuqoridagi kabi o'rtaguvchi savollar nainki er yigitning badani, balki zaminu zamoni titratadi, fikrni qo'zg'atadi, xayolni goh olis-yaqin moziyga, goh bugungi global zamon taloto'mlariga tortqilaydi. Bu shunday bir ulug' titroqki, pirovardida elni hushyorlikka, uyg'onishga da'vat etadi.

Darhaqiqat, qadrdon ulusini tiriltirgan, yerli-suvli, elli-tilli qilgan, urug'ini quritishga qo'ymagan ulug'vor inson – Bilga xoqon haqidagi roman mutolaasidan so'ng goh g'urur, goh surur, goh irg'anish tug'diruvchi ziddiyatli fikrlar kurashi, sha'n-shavkat, o'kinchu armonga esh bo'lmasligi mumkin emas. Binobarin, xoqoni, botiri va eli bilgich hamda yakdil elning erk va erkinligi uning moddiy to'kisligi bilan bir qatorda, buyuk insonparvarligida ham shoyon bo'lishi kerak.

Ta'kidlash o'rinliki, o'zining "Munojot", "Oydinbuloq", "Boqiy darbadar", "Ozod", "Genetik", "Hazrati xizr izidan" kabi kitoblari bilan nainki elimizda, balki Turkiya, Rossiya, Belorusiya singari ko'plab mamlakatlarda ham e'tirof etilgan adibimiz I.Sultonning "Bilga xoqon" tarixiy romani mislsiz ijodiy izlanishlar samarasi sifatida maydonga kelgan. U el-yurt o'zgaga qaram: uning er o'g'illari qul, suluv qizlari cho'ri

bo'lishi, xalqning sillasi qurishidan ochko'z va badnafs yovning sevinishi, ona zaminni toptashiga ko'nmagan donishmand xoqonlar, *"Turkiydan qul bo'lmas! Turkiy bosh egmas!"* [2, S.39] deya ko'ngli o'ksik xalqqa bosh bo'lib maydonga chiqqan, mudrayotgan qonlarni ko'pirtirgan cho'ng botirlar haqida. Ayni paytda, bu roman Ikkinchi xoqonlik haqidagi tarixgina emas, balki turkiy qavmning qanday qilib yaralgani, cheksiz kengliklarga yoyilgani, tangrisini tanigani, hayot va o'lim chegarasidagi hayoti haqidagi tarixiy-adabiy versiyalar va Tangrining abadiyati haqida bitilgan asar ekani, mardona ruhi, e'tiqodiy teranligi, kompozitsion sintetizmi, do'mbira ohanglariga mos ritmi bilan ham go'zaldir.

Shuningdek: *"Ilon o'zining egriligini bilmasdan, tuyaga bo'yning qiyshiq der ekan"*, *"Qarg'a g'oz bo'laman deb tirishsa, buti yirtilibdi"*, *"O'layotgan arslon sichqon inini ko'zlar"*, *"Arslon o'kirsa, ot tuyog'i mayishadi"*, *"Og'ilda uloq tug'ilsa, yaylovda o'ti unadi"*, *"Toy ot bo'lsa, ot tin olur, o'g'il er yetilsa, otasi"*, *"To'ydirsa-da yog' tuzuk, kuydirsa-da kun tuzuk"*, *"Tanbalga bulut yuk emish"*, *"Chopishga yaralgan yurishga, yurishga yaralgan chopishga yaramas"* [2, S.46] singari jozibador, xalqona tili, pand va o'gitlari bilan ham e'tiborga loyiqdir.

Romanda turkiy yozuv yodgorliklari bo'lmish birinchi shaxs tilidan yozilgan marmar lavhalar: To'nyuquq sharafiga qo'yilgan To'nyuquq bitiktoshi, Bilga xoqon sharafiga qo'yilgan Bilga xoqon bitiktoshi, Kultegin sharafiga qo'yilgan arxar surati tasvirlangan xoqonlik tamg'asi naqsh qilingan Kultegin bitiktoshi kabi manbalardagi avtobiografik yozuvlardan samarali foydalangan. Bitiktoshlardagi voqealar Bilga xoqon tilidan hikoya qilinadi. Ammo, bitiklarni Kulteginning jiyani Yo'llug' tigin yozgan. Ularda Bilga xoqon og'a-inilari, qarindosh-urug'lariga, xalqiga murojaat qilgan. Albatta, xoqonning maqsadi hokimiyatni mustahkamlash, o'zaro urush-janjallarga chek qo'yish, ittifoq bo'lib yashashga chaqirish, tarixiy haqiqatlarni kelajak nasllarga yetkazish bo'lgan. I.Sultonning maqsadi ham ana shu tarixiy asosga borib ulanadi.

Bu badiiy-tarixiy asarlar shu paytgacha etnografizmlarni o'rganishda muhim manba sanalib kelinar edi. Chunki ularda o'lka va joy nomlari, turk, o'g'uz, qitaniy, turgash, qirg'iz singari qabila nomlari uchraydi. Endilikda ayon bo'ladiki, ular badiiy ijod uchun ham ulkan ilhom manbai vazifasini o'tashi mumkin ekan. Zotan, ular ko'kturklarning nafaqat e'tiqodi, balki estetik idealidan ham guvohlik beradi.

Jumladan, ikki tosh ustundagi (62 satrlik) Tunyuquq bitiktoshida:

a) Turk xoqonligining qayta tashkil topishida Eltarish xoqonning xizmatlari bayon qilingan.

b) To'nyuquqning xoqonlik shakllanishi va yuksalishidagi, shuningdek, turli o'lkalar va qabilalarga qarshi uyushtirgan harbiy yurishlardagi qahramonliklari, vatanparvarligi batafsil aks etgan.

Darhaqiqat, roman syujet voqeligidagi tarixiy jang so‘nggida Bulutning Ishbara yamtar bilan qilgan quyidagi suhbat-muloqoti roman leytmotivini ifodalashi jihatidan fikrimizni dalillaydi:

“– *Ishbara!* - dedi Bulut arang shivirlab. – *Biz yengdikmi?*

– *Yengdik, Bulut! Tabg‘achni enasini ko‘rsatdik!*

– *Ulus endi erklimi?*

– *Endi tugal erkli, Bulut!*” [2, S.51]

Bilga hoqon ma‘naviy qiyofasi uning o‘z nutqida yorqin namoyon bo‘ladi:

“– *Xoqoningiz* (romandagi Ishang Likan obrazi nazarda tutilmoqda) *sizni, istasang o‘ldirib yuboraver, istasang qul qilib olib ket, dedi. Men Bilga xoqon, so‘zimni tugal aytaman: orada qon to‘kilmasa, qon to‘kmagayman. Tangrim dediki, xoqon to‘g‘ri bo‘lsa, eliga ega chiqsin*” [2, S.53].

Ko‘rinadiki, Isajon Sulton bu ikki toifa lashkarboshini ularning insoniylik darajasi, xalqparvarligi, adolat tamoyiliga munosabatiga ko‘ra farqlaydi. Natijada, romanda Bilga xoqonning, umuman turk bo‘dunining hatto dushmaniga nisbatan ham bag‘ri keng, shafqatli, ayni paytda qat‘iyatli inson ekani namoyon bo‘ladi. Bu bejiz bo‘lmay, Bilga xoqon barpo qilgan Turk davlati yuksalishi barchaning amaldagi yasa qonunlariga og‘ishmay amal qilishi bilan chambarchas bog‘liq edi. Professor N.Rahmonov tarixiy romanni yanada mukammalroq ko‘rish istagida ayrim tanqidiy mulohazalarini ham bayon qiladi:

1. Eltarish xoqon va Kul tiginga oid voqealar tasviri ko‘pkari sahnasida qisqacha lavhadagina berilmay, bir oz kengaytirilishi, Bilga xoqonning tarixdagi adolatli, millatparvar xoqon sifatidagi obrazi Eltarish xoqon va Kul tigin obrazlarisiz mukammal bo‘la olmasligi nazarda tutilib, to‘laqonli ochib berilishi, uning hukmronligi davri haqida kitobxonning tasavvurini to‘ldirgan bo‘lardi.

2. Isajon Sulton romanda Farg‘onaning uchar otlari haqida qisqacha aytib o‘tgan. Qadimgi Xan sulolasi yilnomalarida Parkana haqida berilgan tarixiy voqealar, xususan, Parkana uchar otlari haqidagi ma‘lumotlardan ham ijodiy foydalansa maqsadga muvofiq bo‘lardi.

3. Romanda turk bo‘duni bilan tabg‘ach bo‘duni haqidagi ayrim ma‘lumotlarda uchrovchi chalkashliklar Kul tigin bitik toshidagi Bilga xoqon tilidan hikoya qilingan real tarixiy voqealar negizida bartaraf qilinsa.

4. Xalqning ahvol-ruhiyasi, turumi haqida Bilga xoqonning qayg‘u ichida dard bilan so‘zlagan monologik nutqidan bitiktoshlarda keltirilgan parchalar roman poetik matni tub mag‘ziga singdirib yuborganida, asarning badiiyati yanada jonliroq chiqqan bo‘lardi.

5. Qadim turk qabilalarining shajarasi haqida tarix asarlarida ko‘plab rivoyatlar, afsonalar bor. Ana shu rivoyat va afsonalar romanning badiiy mukammal bo‘lishiga katta xizmat qilishi mumkin.

6. Kelgusida Isajon Sul-ton bu tarixiy mavzuni davom ettirib, Bo‘min xoqon, Istami xoqon to‘g‘risida ham o‘z asarlarini xalqimizga in‘om qiladi, deb umid qilamiz.

Xulosa. Adabiyotshunosning tabg‘ach va turk eliga mansub qahramonlarni hamisha keskin qutblantirib tasvirlashni oqlashiga to‘la qo‘shilib bo‘lmaydi. Chunki bu hol personajlarning roman syujetidagi to‘qnashuv va kurashlar: qahramon ruhiyatidagi ichki psixologik, xarakterlararo va qahramon-muhit shaklidagi konflikt turlari to‘la namoyon bo‘lishiga yetarlicha imkon bermasligi mumkin. Umuman esa, yuqoridagi haqli e‘tirozlar shijoatli, mard xoqonlar, lashkarboshilar faqat tarix asarlari va darsliklarda, shuningdek, ayrim tadqiqotlardagina emas, balki keng o‘quvchilar ommasiga tezkor yetib boruvchi ommabop badiiy nasrda ham o‘z ifodasini topishi istagida ilgari surilgan. Zotan, xoqonning maqsadi hokimiyatni mustahkamlash, o‘zaro urush-janjallarga chek qo‘yish, ittifoq bo‘lib yashashga chaqirish, tarixiy haqiqatlarni kelajak nasllarga yetkazish bo‘lgan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Раҳмонов Н. Мангу битиктошлар илҳоми – <https://uza.uz/uz/posts/mangu-bitik-toshlar-il-omi-01-04-2020>
2. Султонов И. Билга хоқон. Тарихий роман. // “Шарқ юлдузи”, 2019 йил 9- сон. – Б.30.
3. Quronov D. Adabiyot nazariyasi asoslari. – T.: Akademnashr, 2018.
4. Бобоев Т. Адабиётшунослик асослари. – Т.: Ўзбекистон, 2002.
5. Султон Иззат. Адабиёт назарияси. – Т.: Ўқитувчи, 2005.

Ajiniyaz atindagi
NOKIS MAMLEKETLIK
PEDAGOGIKALIQ INSTITUTI
N M P I
1934